

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi: Pudrat shartnomasi

Bundan buyon “Buyurtmachi” deb ataluvchi “Shovot tumani xalq ta’limi bo‘limi” nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor **M.Ollamova** birinchi tomondan va ikkinchi tomondan “Pudratchi” deb ataluvchi “**XORAZM SHAMS BUILDING HOUSE**” MCHJ direktori **J.Halimov** Shovot XTBga қарashli 1-son maktab binosini joriy ta’mirlash (sport zal tom qismini, eski derazalarni yangisiga almashtirish) bo‘yicha ushbu shartnomani tuzdilar. Shartnomaning umumiy qiymati **547.202.271 so‘mni** tashkil qiladi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot - Shovot tumani Xalq ta’limi bo‘limi tomonidan 23.06.2022-yil sanasida ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Ushbu loyiha O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi “*Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida*”gi №670-I-sonli Qonuni va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.



Markaz bosh yuriskonsulti:

Qurbanov B.R.

II. SHARTNOMA MAVZUSI

Pudratchi deb ataluvchi shartnoma shartlariga muvofiq. Sunesa xunnilanda 2023-yilgen joyiva bo‘yicha 1-son muktab binosini joriy tashitish (sport zal tom qismini eski derazalarini yangisiga almashtirish uchun ishlash majburiyatini oldi. Buyurtmachi esa Pudratchiga 1-son muktab binosini joriy tashitish (sport zal tom qismini eski derazalarini yangisiga almashtirish) ishlarni bo‘lgish ushun

Pudrat shartnomasi

2022 й. «23» 6

2022-410-12-177-XT-

COH

Shovot t.

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Shovot tumani xalq ta'limi bo'limi Nizom** asosida ish ko'ruchchi raxbar M.Ollamova bir tomondan, keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan nomidan **XORAZM SHAMS BUILDING HOUSE MCHJ** Nizom asosida ish ko'ruchchi **J.Holimov** ikkinchi tomondan Shovot tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 1-son maktab binosini joriy tamirlash (sport zal tom qismini eski derazalarni yangisiga almashtirish) bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. TA'RIFLAR

1. Mazkur shartnomada quydagi ta'riflar qo'llaniladi;

-**ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqliggi tug'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqllovchi boshqa xujjatlardan berkitiladigan ishlarni tasdiqlanganligi tug'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlardan;

-**qurilish maydoni** – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomalar bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib ko'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

-**vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagisi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

-**berkitiladigan ishlar** – sifati va aniqligini keyingi ishlarni bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmanan keyinchalik bajariladigan ishlarni bajarishda berkitiladigan ishlarni;

-**shartnoma narxini bo'lib chikish** – ishlarning xar bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Smeta xujjatlarida ko'zda tutilgan loyixa bo'yicha **1-son maktab binosini joriy tamirlash** (sport zal tom qismini eski derazalarni yangisiga almashtirish) ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga **1-son maktab binosini joriy tamirlash** (sport zal tom qismini eski derazalarni yangisiga almashtirish) ishlarni bajarish uchun

zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA ISHLAR QIYMATI.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda **1-son maktab binosini joriy tamirlash** (sport zal tom qismini eski derazalarni yangisiga almashtirish) narxlarda jami **547 202 271** (**Besh yuz qirq etti million ikki yuz ikki ming ikki yuz etmish bir**) so'm bunda QQS 71 374 209.2 (Etmish bir million uch yuz etmish to'rt ming ikki yuz to'qqiz so'm 2 t) tashkil qiladi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar qiymati Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaсидаги shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada kayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul kilingan majburiyatlar va boshka funksiyalarga rioya etilishini nazorat kilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;

- moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va moliyalashtirishni amalga oshirish;

- Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;

12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI.

13. Shartnoma tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova kilingan ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq ishlarni bajaradi.

15. Ob'ektni **30 kalendar kunida** foydalanishga topshirilishi belgilanadi .

VII. TO'LOVLAR VA XISOB – KITOBLAR

16. Shartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «so'mda» qilinadi.
17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar **Shovot tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 1-son maktab binosini joriy tamirlash (sport zal tom qismini eski derazalarni yangisiga almashtirish)** ishlariga 30 % miqdorida avans o'tkazadi, bu 164 160 682,2 (Bir yuz oltmishto'rt million bir yuz oltmishto'rt million ving olti yuz sakson ikki so'm 2t) tashkil etadi.
18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish Shovot tuman Xalq ta'limi bo'limiga qarashli **1-son maktab binosini joriy tamirlash (sport zal tom qismini eski derazalarni yangisiga almashtirish)** uchun budgetdan tashqari maqsadli berilgan mablag'lar 3 banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi. (1,2-ilovalar)
19. Buyurtmachi tomonidan joriy ta'mirlashni moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin xaqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.
20. Pudratchining xisob raqamiga tushadigan mablag'lar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lган materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qatt'iy sarflanadi.
21. Pudratchi joriy ta'mirlashni moliyalashtirish uchun xisobot oyning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari to'g'risidagi «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomma xisob-varaq-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.
22. Buyurtmachiga joriy ta'mirlashni moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnomma-xisob-varak-faktura» asos buladi.
23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga kadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini uzida saklaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirunguga kadar ob'ektning tasodifiy yo'q kilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida buladi.

VIII. ISHLARNI BAJARISH.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini yoki texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilanligidan materiallar va asbob-uskunalarning shartnoma shartlariga va ish xujjalalariga muvofikligini tekshiradi.
25. Berkitilgan vakil yoki texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan tusiqsiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi berkitilgan vakil yoki texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Berkitilgan vakil texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyhasiga va mazkur shartnomaning VI-bulimida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiklashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir kilmaydigan ish xujjalardan mayda chetga chikishlarni Buyurtmachining roziligesiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u xolda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining uzaro munosabatlarida axamiyatga ega bulgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bulishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar kursatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, utkazilgan sinovlar, materiallar uz vaktida yetkazib berilmasligi bilan boglik tuxtab kolishlar, qurilish texnikasining ishdan chikishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir kilishi mumkin bulgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining kaydlaridan qoniqmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon kiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. YENGIB BULMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar kisman yoki tulik bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bulmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiksa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday kisman yoki tulik bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bulmaydigan kuch xolatlari amal kilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaktga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bulmaydigan kuch xolatlari yoki ularning okibatlari bir oydan kup vaktga chuzilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservasiya kilish uchun kanday choralar qurilishini muxokama kiladilar.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim koidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnomaga bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor kilinishiga yo'l qo'yilmaydi, konun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

XII . TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI.

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda aybdor tomon: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida» gi qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 may 2003 yildagi PF-3240 sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 395 sonli qarori bilan, boshka qonun xujjatlarida xamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi va ikkinchi tamonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi.

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida kuyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma bo'yicha buning oqibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;
- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob raqamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;
- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlarni xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiklashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul kilish, tasdiklashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;
- shartnoma shartlariga muvofik tayyor xolda qabul kilish uchun takdim kilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul kilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

43. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan takdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

- Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa, majburiyatlarning bajarilmagan kismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% mikdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlarni qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan mikdordan kam bajarsa, bajarilmagan kismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (o'n kundan ortiq bo'limgan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.

44. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon raqamlarini, korxona atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotni uch kalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tamon ikkinchi tamonga shartnoma baxosining 0,1% miqdorida jarima to'laydi.

45. Bir tamonning aybi bilan shartnomani bekor kilishga tug'ri kelsa, aybdor tamon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi qonunlarda belgilangan tartibda.

46. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib to'laydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% dan oshmasligi kerak.

47. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

XIII. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI.

48. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojat kilishlari mumkin.

XIV. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

49. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Buyurtmachi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Pudratchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Pudratchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

XV. ALOXIDA SHARTLAR

50. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rta sidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

51. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida qismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinchi tamonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

52. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

53. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rta sidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday

axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

54. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak to'lashni kechiktirishga xaqlidir.

55. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari qo'llaniladi.

56. Mazkur shartnoma tamonlar imzolanib Budget kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan keyin yuridik kuchga kiradi va ushbu shartnoma 31.12.2022 yil gacha amal qiladi.


57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.
PUDRATCHI:

BUYURTMACHI:

XORAZM SHAMS BUILDING HOUSE MCHJ		Shovot tumani xalq ta'limi bo'limi
Manzil: Shovot tuman Beshchiqir 28		Manzil: Usta Sodiq 23 uy
Telefon: 99 730 30 90		Telefon: 34-55-527
x/r: 2020-8000-7050 7649 3001		x/r: 401722860332177092100075015
INN: 306425541		INN: 201783089 OKED: 92310
Bank: Shovot Agrobank		Moliya vazirligi gaznachiligi
MFO: 000567		x/r: 23402000300100001010
MCHJ		Bank: Markaziy bank Tosh.sh.
		MFO: 00014 INN: 201122919



Rahbar  J. Halimov
MO'

Rahbar _____
MO'

M.Ollamova



Shovot tuman Xalq ta'lifi bo'limiga qarashli 1-son mактаб binosini joriy ta'mirlash


(maktab sport zal qismini ,eski derazalarni almashtirish) buyicha oylar davomida ishlarni
bajarish grafigi

2-ilova

T/R	Ob'yekt nomi va manzili	Xajm birligining kiymati	2022 yil uchun ishlarni bajarish kiymati											
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekarb
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1	Shovot tuman Xalq ta'lifi bo'limiga qarashli 1-son mактаб binosini joriy ta'mirlash (maktab sport zal qismini ,eski eshik va almashtirish)	547 202 271,0						164 160 681,3	383 041 589,7					



Buyurtmachi



Pudratchi

Shovot tuman Xalq ta'lifi bo'limiga qarashli 1-son maktab binosini joriy ta'mirlash

(mktab sport zal qismini ,eski derazalarni almashtirish) bo'yicha oylar davomida ishlarni moliyalashtirish
grafigi

1-ilova

T/R	Ob'yekt nomi va manzili	Xajm birligining kiymati	2022 yil uchun moliyalashtirish qiymati											
			1-chorak			2-chorak			3-chorak			4-chorak		
			yanvar	fevral	mart	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentyabr	oktyabr	noyabr	dekabr
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1	Shovot tuman Xalq ta'lifi bo'limiga qarashli 1-son maktab binosini joriy ta'mirlash (mktab sport zal qismini ,eski eshik va almashtirish)	547 202 271,0												
	Avans summasi	164 160 681,30						164 160 681,30						
	Bajarilgan ish uchun	383 041 589,70							383 041 589,70					



Buyurtmachi



Pudratchi